

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## TIL TA'LIMIDA SO'ZLARINING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARINI O'RGANISH

Rajapova Kumush Masharipovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

998913838373@yandex.ru

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada til ta'limida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganish haqida gap ketadi. Shuning bilan birga dars jarayonida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari ustida ish olib borishda amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan. Hamda o'quvchilarning nutqini o'stirishda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining ahamiyati haqida ham fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, uyadosh so'zlar, ko'p ma'nolilik, bilim, malaka, ko'nikma, barqaror birikma, turg'un birikma, tasviriy ifoda.

Bugun kunda ta'lim tizimning barcha bo'g'inlarida o'qitish va o'rgatish yoki o'rganishda, so'zsiz, innovatsion texnologiyalarni qo'llashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalari ahamiyatlidir.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari. Tilimizda ayrim so'zlar o'zlariga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatdan o'xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko'ra, ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlar kabi guruhlarga bo'linadi.

So'z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali. Shunga erishish lozimki, o'quvchi yangi va notanish so'zga e'tiborsiz bo'lmasin. Uning ma'nosini anglashga, zarur paytlarda o'z nutqida qo'llashga harakat qiladigan bo'lsin.

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatidan, bir xillari esa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir-biriga



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

qarama-qarshi bo‘ladi. Omonimlar - talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlardir: yara (ot) – yara (fe’l), un (mahsulot, ot) – un (harakat).

Omonimlar bir xil so‘z turkumiga ham, har xil so‘z turkumlariga ham oid bo‘lishi mumkin: ot - ism, (ot turkumi) – ot (harakat) fe’l so‘z turkumiga oid. Bu yerda ular har xil so‘z turkumlariga oiddir: ot – ism, ot - hayvon bunda ikkalasi ham bir so‘z turkumiga oiddir. Bir turkum doirasidagi omonimlar qo‘shimchalar qabul qilganda ham omonimligini saqlab qolaveradi.

Sinonimlar - shakli har xil bo‘lsa ham, ma’nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Sinonim so‘zlar bir xil narsalarni (sovg‘a, hadya, tortiq), bir xil belgini (go‘zal, chiroyli, suluv ), bir xildagi harakatni (gapirmoq, so‘zlamoq) bildiradi. Bunday so‘zlar ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma’nosi betaraf bo‘lgan, ko‘p qo‘llanadigan so‘z asosiy so‘z (dominant, bosh so‘z) deb ataladi. Maslan, yuz, bet, chehra, oraz, bashara, turq. Sinonim so‘zi grekcha sinonimos (bir nomli) so‘zidan olingan. Sinonim so‘zlar nutqning ta’sirli bo‘lishiga yordam beradi. Sinonim so‘zlar bir xil so‘z turkumiga oid bo‘ladi; osmon, samo, falak, ko‘k, (ot) ; ko‘p, mo‘l, bisyor ( ravish) ; yugurdi, chopdii (fe’l).

Ma’nodosh so‘zlar (sinonimlar) ustida ishlash usullari. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sinonimiya hodisasi va uning nutqiy amaliyotini o‘rganish uchun maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim amaliyotida xilma-xil shakl va usullar mavjud. Ulaming orasida eng keng tarqalganlaridan biri sinonim so‘zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o‘quvchi va talabalar mustaqil ravishda bajarishadi. O‘quvchining dunyoqarashi, tasavvr doirasi, tayyoigarlik darajasiga qarab, bu qatorlar ancha mukammal yoki ixcham bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar sinonimik qatorlarni tuzish jarayonida yangi so‘zlarni o‘z lug‘at boyliklari sirasiga kiritadilar. Shu bilan birga, hozirgacha nisbatan kam ishlatiladigan so‘zlarning faollashishiga ham zamin yaratiladi.

Bu xildagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun: berilgan so‘zlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim so‘zlarni ajratib yozish; sinonim so‘zlar asosida saylanma diktant o‘tkazish; har bir sinonim so‘zning ma’no nozikliklarini izohlash kabi mashqlar bajarilishi mumkin.

Eng oxirgi turkumdagi vazifalar o‘quvchilarning yangi so‘zlarni o‘rganishlari va o‘zlashtirishlarida eng ko‘p darajada yordam beradi. Shu jarayondagi mashqlarning turlari juda rang-barang bo‘lishi mumkin. Ular orasida sinonimik qatordagi barcha



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

soʻzlar uchun umumiy boʻlgan maʼnoni topish asosiy oʻrin tutadi. Masalan, jahl, achchiq, gʻazab, qahr, zarda soʻzlarini koʻraylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh maʼno nojoʻya xatti-harakat yoki hodisaga nisbatan qoʻzgʻalgan kuchli darajadagi his-tuygʻu va uning ifodasidir.

Mazkur soʻzning maʼnolarini aniqlashda “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan foydalanish mumkin: achchiq — qahr, jahl; zarda. zarda — koʻchm; jahl, gʻazab, zugʻum; qahr — qattiq achchiqlanish holati; gʻazab — kuchli darajada nafratlanish, achchiqlanish hissi, qahr, jahl.

Keyingi bosqichda shu qatordan barcha soʻzlar uchun umumiy boʻlganlarini (jahl, achchiq), ulardan belgining darajasi nisbatan kuchli va yuqori boʻlganlarini (gʻazab, qahr) ajratish mumkin boʻladi.

Ushbu qatordagi soʻzlarni maʼnoning kuchayib borishi yoki pasayib borishi yoʻnalishida joylashtirib chiqish ham topshiriq sifatida yaxshi samara beradi. Bunda ham oʻquvchilar soʻz maʼnolari ustida bosh qotirishadi, natijada, mazkur soʻzlarning ular ongida mustahkamlanib, nutqlarida faollashib qolishiga imkon yaratiladi.

Sinonimlar ustidagi ish jarayonida oʻquvchilar soʻzlarning faol yoki nafaol darajadagi isteʼmolini (“barvasta” oddiy nutqda juda kam ishlatiladi, “gavdali” esa juda faol qoʻllanadi), ularning muayyan yoʻnalishdagi chegaralanishini (“norgʻul” asosan yosh, yigit kishilargagina nisbatan qoʻllanadi), ayrim hollarda ularning emotsional boʻyoqqa ega boʻlishini (“barzangi” asosan salbiy maʼno tashiydi) anglab yetishadi.

Bu sinonimlarni nutq jarayonida qoʻllash orqali ham oʻquvchilarning sinonim soʻzlarga bogʻliq bilim, tushuncha, koʻnikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari bor. Ular nutq jarayonida bir soʻzning oʻrniga boshqasini qoʻllab boʻlmasligini, bordi-yu qoʻllanganda ham u yerdagi maʼnoning boshqacha noziklik bilan yuzaga chiqishini amaliy jihatdan sezib olishadi, koʻrishadi.

Sinonimlar ustidagi ishlash oʻquvchilar nutq boyligini oshiradi, ularning bitta maʼnoni ifodalashdagi ortiqcha takroriylikdan qutulishlariga imkon beradi, fikmi nisbatan aniq, loʻnda va tiniq ifodalashga oʻrgatadi. Shuning uchun ham bu jarayonda badiiy adabiyotlarga koʻproq murojaat etish, oʻquvchilarning bevosita izohli lugʻatlar ustida ishlashlarini ragʻbatlantirish maqsadga muvofiq boʻladi.

Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatlariga koʻra turlari ustida ishlashda maʼnodosh soʻzlar guruhlarini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maʼnodosh soʻzlar – tilimizning leksik boyligi. Undan qancha oʻrinli foydalanilsa, fikrni ravon, goʻzal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, soʻzdan toʻgʻri va



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

samarali foydalanish malakalari shakllanadi.

Og‘zaki hamda yozma nutqni ma‘nodosh so‘zlar bilan boyitishda so‘zlarni quyidagi leksik ma‘no guruhlariga ajratish usullaridan foydalanish mumkin.

Dars jarayonida ta‘lim-tarbiyada o‘quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch ta‘lim jarayoni subyekti bo‘lishi kerak. O‘qituvchi esa o‘qitishdan o‘qishni o‘rganishga, bilim berishdan bilimlarni o‘quvchilar mustaqil egallashlariga ko‘maklashishi zarur. Ma‘lumki, har bir dars uchun ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar belgilab qo‘yiladi. Mashg‘ulotni tashkil qilish shakli unda qatnashuvchilarning psixologik xususiyatlariga, o‘quv material hajmi va mazmuniga ta‘lim usullari hamda o‘quvchilarning imkoniyatiga qarab loyihalashtiriladi.

O‘qitishda o‘quvchi har bir mashg‘ulotda xuddi imtihondagidek harakat qilishi, o‘z nazorat faoliyati natijasini vaqtida bilishi, shu bilan birga, o‘quvchining yutug‘iga o‘qituvchining munosabati yoki o‘quvchining kamchilik va xatolariga o‘qituvchining munosabati masalalari ham zamonaviy pedagogik texnologiya qoidalari sifatida o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi shart.

O‘quvchining nutqiy taraqqiyotida shakldosh, paronim so‘zlarning har biriga ma‘nodosh va uyadosh so‘zlar tanlash, ular ishtirokida so‘z birikmasi va gap tuzish, so‘z o‘yinlari tashkil qilish, tuyuqlar va hikmatli so‘zlar, maqol va matallar ustida ishlash; turli izohli lug‘atlardan foydalanib, so‘z ma‘nolarini sharhlash, xilma – xil iboralar, matnlar yaratish kabi amaliy ishlarni bajarish o‘ta foydalidir.

Xullas, ona til ta‘limida so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda yuqoridagi usullardan foydalanish rejalashtirilgan mavzularni puxta egallash va amalda qo‘llashda katta samara beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne‘matov H., G‘ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi,1996.–125b.
2. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
3. Zokirov I.I. Ta‘lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning nazariy-amaliy asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T.: 2005. – 126 b.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 101 b.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 261 b.
6. Xodjaev B.X. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2008. – 69 b.



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

